



Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun

MASHQ DAFTARI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2021



UO'K 37.016:811.512.133(075)

KBK 74.268.1

81.20'zb

O-58

Tuzuvchilar:

Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun

Xalqaro ekspert:

Lannuzzi Susan

Taqrizchilar:

S. Tajbenova – Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

N. Paxritdinova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi
67-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ona tili va o'qish savodxonligi 2 Mashq daftari [Matn]: 2-sinfi uchun mashq daftari / I. Azimova, K. Mavlonova, Sh. Tursunov, S. Quronov.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi.- 80 b.



Shartli belgi:

– O'zingizning shaxsiy daftaringizga yozing.

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*



QUVNOQ FERMA

1. Rasmdagi hayvon va parrandalarning nomini yozing.

2. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ushbu hikoyada ishtirok etgan qahramonlarni alohida ajrating.

Sobirjon	Mahalla oqsoqoli	Sobirjonning o'qituvchisi	Hokimiyat vakillari	Sobirjonning akasi
Sobirjonning oyisi	Tuman hokimi	Rahima xola	Sobirjonning tog'asi	Sobirjonning buvisi
Sinfdoshlari	Bolalar	Sobirjonning qo'shnilari	Sobirjonning bobosi	Sobirjonning dadasi

Hikoyada bo'lib o'tgan voqealar ketma-ketligini aniqlang.

Tez orada jo'jalar kattarib, tuxumga kirdi. Ko'payib ketgan jo'jalarni boquvchisini yo'qotgan oilalarga tarqatdi.

Sobirjon 20 ta jo'ja sotib oldi, ularni mehr berib parvarish qildi.

Oyisi va dadasi bilan tovuqxona qurish masalasida maslahatlashib oldi.



Bank yosh tadbirkor Sobirjon Mansurovga maktabni bitirgach, ishlarini yanada kengroq yo'lga qo'yishi uchun mablag' ajratishga qaror qildi.

Sobirjon qo'shnisi Rahima xolanikiga chiqqandan so'ng uning fikr-xayoli tovuq boqishda bo'lib qoldi.

✓ **Quyida berilgan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri (+), qaysi biri noto'g'ri (-) ekanini ayting.**

1. Sobirjonning velosiped olish uchun yig'ib yurgan puli 20 ta ikki oylik jo'jaga yetadi.

2. Dadasi Sobirjonga o'g'il bola biror hunar yoki ish bilan shug'ullanishi kerakligini aytdi.

3. Sobirjon g'isht quyishni akasidan o'rgangan.

4. Maktab o'quvchisi bo'lgan Sobirjonga yosh tadbirkor sifatida mablag' ajratildi.

5. Kurk bo'lgan tovuqlar 25 kunda hovlini jo'jalarning "chip-chip" tovushiga to'ldirib yubordi.



✓ **Sobirjon jo'jalarni yaxshigina daromad manbaiga aylantirish uchun ularni qanday parvarishladi?**

3. Matn asosida jadvalni to'ldiring.

Ular qayerda yashaydi?



1. Qo'y, echkilar

2. Sigir, buzoq, ot, eshak

3. Tovuqlar

4. O'rdak, g'ozlar

Katak	Og'il	Hovuzcha	Qo'ra

4. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

Bo'sh o'rinlarni matn asosida to'ldiring.

1. Voy-vo', ammasining uyi hayvonot bog'ining naq o'zi ekan. Jahongirning hayratdan _____.

- a) hayron bo'lib qolibdi
- b) og'zi ochilib qolibdi
- d) shoshib qolibdi

2. Jahongir tovuqxonaga ketayotganda uning ro'parasidan _____ kuchukcha chiqib qoldi.

Qo'yish uchun so'zlar: hurpaygan, qo'rqinchli, po'mpa-loqqina, katta.

3. Go'sala – _____

Qo'yish uchun so'zlar: uloq, buzoq, xo'tik, bo'taloq.

4. Bobolar nabiralarini " _____ " deb erkalatishadi. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi ikkita javobni belgilang.



bo'talog'im

xumpar

xo'tikcham

toychog'im

✓ **Mosini toping.**

Itning bolasi

Tuyaning bolasi

Echkinging bolasi

Otning bolasi

Qo'yning bolasi

Sigirning bolasi



Uloq

Kuchuk

Qo'zichoq

Buzoq

Qulun

Bo'taloq

✓ **Jahongirning bobosi unga nimalarni o'rgatdi?**

- Qishloqdagi jonivorlarning nomlarini
- Jonivorlarning bolalari qanday atalishini
- Jonivorlar qayerlarda yashashini

5. Berilgan so'zlarga mos izohni aniqlang.

uzra

hurmoq

sergak

ho'plamoq

poxol

darrov sezadigan, ziyrak

ustida

vovullamoq

donli ekinlarning quruq poyasi

to'xtab-to'xtab ichmoq



6. "Mening kichik fermam" mavzusidagi loyihangiz asosida matn yozing.



VAQT QADRI

1. Berilgan soʻzlarning izohini yozing.

dangasa

_____ / _____ / _____ / _____

tartibli

_____ / _____ / _____ / _____

tartibsiz

_____ / _____ / _____ / _____

beparvo

_____ / _____ / _____ / _____

2. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga mos soʻroqni koʻrsatib gaplarni koʻchiring.

_____ / _____ / _____ / _____

_____ / _____ / _____ / _____

3. Ajratib koʻrsatilgan oʻrinlarning izohini toping.

ahyon-ahyonda

sen bilan gaplashib,
sen bilan ovora boʻlib

bong urib qoʻyardi

baʼzan, kamdan-kam vaqtda

sen bilan boʻlib

soat aniq vaqtni bildirib,
tovush chiqarardi

millarim pichirlab


soat millarining chiq-chiq
etgan tovush chiqarishi



4. Hikoya asosida 4 ta savol tuzib, yozing.

Blank writing lines for composing questions.

5. Soat vaqtlarini ayting va yozing.



1



2

8:18

3

5:35

4

Blank writing lines for writing the times and answers.



Maqollarning sharhini yozing.





ROBOT IXTIRO QILAMAN

1. Multfilm yoki kinoda ko'rgan robotlaringiz qanday harakatlar bajarishini yozing.

Blank writing lines for the first task.

2. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Uyingizda qanday “aqli qurilmalar” bor? Yozing.

Changyutkich,

Blank writing lines for the second task.

Matndan olingan ushbu fikrni to'ldiring.

Robotlar _____.

Kerak bo'lsa, _____.

1) kiyimlarini ham dazmollab beradi

2) jomadonini ko'tarib, xonasiga kuzatib qo'yadi

3) mehmonlarni kutib oladi

Quyidagi jadvalni to'ldiring.



Olimlarning fikri	Odamlarning fikri
Kelajakda robotlar hammaning uyida xizmat qiladi.	Robotlarning odamlar orasiga kirib kelishi xavfli.
Chunki	

3. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Hikoya qahramoni	Robotning nomi	Robot ishlaydigan soha
_____	_____	_____
_____	_____	_____

Ixtiro qilingan robotning vazifasi nimalardan iborat edi?

1. _____
2. _____
3. _____



✓ **Matnda quyidagi birikmalar nimalarga o'xshatilganini aniqlang.**

- A. Ko'krak kerib turish _____.
- B. Bog'bonrobot _____.
- D. Temir qo'llar _____.

✓ **Ushbu gaplardagi xatolarni aniqlang va to'g'rilab ko'chiring.**

1. Sahnaga to'r g'ildirakli, bir qarashda changyutkichni eslatadigan droid chiqib keldi.

2. Bog'bonrobotka daraxtlarni sug'orish, hasharotlardan himoya qilish va hosilni yig'ib olish dasturlari o'rnatilgan.

3. Qurilmaning ikki yonidagi uzun-uzun qo'llar daraxtagini yumshatish hamda uni sug'orish vazifalarini bajarishga yordam beradi.

4. Savollarga javob yozing.

1. Ixtirochi bolaning (qiz yoki o'g'il) ismi nima?

2. U nima uchun robot yasashni istaydi?

3. Robotni nimalardan yasadi?



4. Robotga qanday nom qo'ydi?

Handwriting practice lines for question 4, consisting of five sets of three horizontal lines with a diagonal slash on the left side.

5. Uning roboti odamlarga qanday foyda keltirdi?

Handwriting practice lines for question 5, consisting of five sets of three horizontal lines with a diagonal slash on the left side.

5. "Robot ixtiro qilaman" mavzusida hikoya yozing.

Large handwriting practice area for the story, consisting of multiple sets of three horizontal lines with a diagonal slash on the left side.





G'AROYIB IXTIROLAR



1. Namunaga o'xshatib yozing.

Namuna *ruchka – osonroq yozish uchun.*

2. Rasmdagi narsalarning nomini yozing.



3. O'xshash narsalarning nomini yonma-yon yozing.

Namuna *yelparrak – konditsioner.*



4. O'tgan dars asosida namunadagi kabi gaplar tuzing.

Namuna *Marker bo'rdan ko'ra foydaliroq, chunki u bilan qog'ozga ham yozsa bo'ladi.*


yoki

Bo'r markerdan ko'ra foydaliroq, chunki undan chiqindi chiqmaydi.



5. Savollarga javob yozing.

1. Bilakqopning qo'lqopdan qanday farqi bor?
2. Daniyel quradigan uylarning boshqa uylardan nima farqi bor?





QUYOSH – QUVVAT MANBAI



1. Matn mohiyatini ochib bergan so'zlarni ko'chirib yozing.



2. Berilgan topshiriqlarni bajaring.



✓ Quyosh tig'i ostida yurishning qanday zararli tomonlari bor?

✓ Oftob urganda organizmimizda quyidagi belgilarning qaysilari ro'y beradi?

Ko'ngil
aynishi

Tomoq
og'rig'i

Bosh
og'rig'i

Burundan
qon kelishi

Tish
og'rig'i

Mushaklar
tortishishi

✓ Bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

1. Quyosh nurlarining ortiqchasi ko'z kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun yoz mavsumida _____ dan foydalanish kerak.

2. Quyosh issiqligining boshga ta'siri _____ faoliyatining buzilishiga, _____ aylanishining izdan chiqishiga olib keladi.

✓ Nima deb o'ylaysiz, yuqoridagi maslahatni kim bergan bo'lishi mumkin?

A Shifokor

B O'qituvchi

D Ota-onamiz



✓ **Matn mazmuni asosida quyidagi shakllarga mos keladigan uchta gap yozing.**

1. _____ .
2. _____ ?
3. _____ !

3. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

✓ **Qunduz qanday kasallikka chalingan edi?**

A Tish og'rig'i

B Dangasalik

D Bosh og'rig'i

✓ **Ushbu ma'lumotnomani to'ldiring.**

MA'LUMOTNOMA

Bemor: _____

Tashxis: _____

Alomatlar: _____

Tavsiyalar: _____

Shifokor: _____

Sana: _____



✓ “Dangasa”ga ma’nosi yaqin so‘zlarni bo‘yang.

tanbal	baquvvat	qo‘rqoq
mehnatkash	ishyoqmas	ikkichi
jonkuyar	bardoshli	yalqov

4. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

✓ Moslashtiring.

sob bo‘lmoq	cho‘g‘
saxiy	qizg‘anchiq
shu‘la	hech kimdan narsasini ayamaydigan
ziqna	kichkina, mayda bo‘lak
qo‘r	nur, yorug‘lik
zarra	tugamoq

✓ *Matn asosida oftobga xos sifatlarni yozing.*

Namuna bag‘rikeng ...



5. “Quyoshni kim (nima)ga o‘xshatgim keladi?”
mavzusida matn tuzing.

Quyoshni ____ga o‘xshatgim keladi. Chunki ...